

HARAKATLI O'YINLAR

KARTOTEKASI



KICHIK VA O'RTA GURUHDA

O'YNALADIGAN HARAKATLI O'YINLAR

- № 1 • Mavzular
- 2 • "Chumchuq va avtomobillar"
- 3 • "Poezd"
- 4 • "Samolyot"
- 5 • "Pufak"
- 6 • "Qog'irchoqlarnikiga mehmonga"
- 7 • "Koptokni quvib et"
- 8 • "Soqmoq bo'ylab"
- 9 • "Tayoqchadan xatlab o't"
- 10 • "Menga etib olinglar"
- 11 • "Chaqildoqqa emaklab kel"
- 12 • "Daryoza"
- 13 • "Chiziqni bosma"
- 14 • "Topni ilib ol"
- 15 • "Topni yumalat"
- 16 • "Mening quvnoq shox koptokcham"
- 17 • "Oq quyonim alomat"

CHUMCHUQLAR VA AVTOMOBIL»

O'yinniing maqsadi:

Ta'limiy vazifasi: Tarbiyachining buyrug'i bilan bolalarni turli yunalishda, bir-biriga urilmasdan xarakat qilishga va yo'lni o'zgartirib, o'z joyini topib olishga o'rgatishdan iborat.

Rivojlantiruvchi vazifasi: ko'rish, eshitish qobiliyatlarini va xotirasini rivojlantirish, tasavvur va tushunchalarni kengaytirish.

Tarbiyaviy vazifasi: bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, bolalarda tetiklik, engilik, quvonch sezgilarini uyg'otadi.

O'yinning borishi: Bolalar maydoncha yoki xonaning bir tomoniga quyilgan stillarda yoki skameykalarda o'tradilar. Bolalar chumchuqlar, u erda esa in bo'ladi. Ikkinci tomonda turgan tarbiyachi avtomobilni ifoda etadi. U: «Qani, chumchuqlar, yo'lga uchib tushamiz», deydi, shunda bolalar maydoncha bo'ylab xudi chumchuqqa o'xshab, ullarim qanot qilib qoqib yuguradilar. Oradan bir oz o'ttach, tarbiyachi «Extiyot bo'linglar, avtomobil kelvapti. Qani qushchalar in-inlaringizga qochinglar», deydi. Avtomobil garajlan chiqib, chumchuqlarga qarab yuguradi. Chumchuqlar inlariga qarab uchadilar (joylariga borib utiradilar). Avtomobil esa garajga qaytadi.

Dastlab o'ynda 10-12 bola, keyii butun guruh qatnashadi. Tarbiyachi oldin chumchuqlarning qanday uchishim, qanday don chuqishmi ko'rsatib beradi. Bolalar chumchuqlarga taqlid qilib tarbiyachining xarakatlarini takrorlaydilar. Keyii o'yinda avtomobilni tarbiyachining o'zi ipga bog'lab sudrab yuradi. Faqat o'yinni bir necha marta takrorlagandan keyingina, harakatchanroq bir bolaga avtomobilni olib chiqish va sudrab yurishni topshirish mumkin. Qushchalar o'z inlariga etib olishlari uchun avtomobil juda tez yurmasligi kerak.




“POEZD”

O'yinning maqsadi:

Ta'limiy vazifasi: bolalarni bir nechtadan bo'lib, avval bir-birining orqasidan ushlab, keyin ushlamasdan yurishga, yugurishga va to'xtatishga o'rgatishdan iborat.

O'yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga bir-birining orqasidan turishni taklif qiladi «Sizlar vagonchalar, men parovoz bo'laman», deb o'zi bolalarning oldiga borib turadi. Parovoz xushtak chaladi-da, dastlab asta-sekin xarakatlamb, so'ng tez yurib ketadi (tarbiyachi «du-du-du» deb ovoz chiqaradi, bolalar uning ketidan qadamlarini acta tezlatib, keyin yugurib ketadilar). So'ngra tarbiyachi xaraqatni sekinlashtirib, acta-sekin to'xtaydi va «Poezd bekatga etib keldi. Mana bekat», deydi-da, yana xushtak chalib, yurib ketadi.

Dastlab besh-oqtta bola ketma-ket turadi, qolganlari stulchalarda o'tirib tomosha qilishadi. O'yinnin takrorlaganda bolalar soni 12-15 kishiga etishi mumkin. O'yin ko'p mapta takrorlangach, eng chaqqon bolaga parovoz bo'lishni topshirish mumkin. Vagonlar bir-biridan uzilib qolmasligi uchun parovoz juda tez yurmasligi kerak.




“SAMOLYOTLAR”



O'yining maqsadi:

Ta'limiy vazifasi: O'yinda bolalar bir-biriga tegmaston, turli yo'nalishda yugirishga o'rgatiladi, shunda ular signalni darov ilg'ab olib, harakatni boshlashga odatlanadilar.

O'yining borishi: Bolalar samolyotda o'tirgan bolalarni ifoda etadilar. Ular maydonchaning har er, har erida turadilar. Tarbiyachi «Uchishga tayyorlaning!» deganda qo'llarini tirsakdan bo'kib oldilarida aylantiradilar, ya'm motorni ishga soladilar «Uchinglar!» deganda qo'llarini yon tomonlariga uzatib, maydoncha bo'ylab tarqalib yugiradilar. «Kunning!» deganda samolyotlar to'xtab, erga qo'nadilar (bolalar birga tizzalarini erga qo'yib chunqayadilar). O'yin 5-6 marta takrorlanadi. O'yinni biroz murakkablashtirish mumkin. Buning uchun bolalar 3-4 guruhga bo'linadi. «Kunning!» deganda, o'z joylarini topib turadilar, tarbiyachi kaysi guruh samolyotlari birinchi bo'lib to'planganligini ta'kidlaydi.



«PUFAK»

O'yinning maqsadi:

Ta'limiyl vazifasi: Uyinda bolalar doyra bo'lib goh keng goh g'uj bo'lib turishga o'rgatiladi, berilgan buyruqqa mos harakat qilishga odatlantiradi

Bololar tarbiyachi bilan birga qo'l ushlashib, kichkina doiracha yasab, bir-birlariga yaqin turadilar. Tarbiyachi she'r aytadi.

Pufak, pufak, aytaman:

Shishib yana katta bo'l.

Doimo shunday qol,

YOrilmay qo'ya qol.

Shundan keyii bolalar bir-birlarining qo'llarini quyib yubormasdan, orqaga yura boshlaydilar.



Tarbiyachi: «Pufak yorilib ketdi» deyishi bilanoq, bolalar yurishdan to'xtab qo'l qo'llarini tushirib, chunqayib o'tiradilar va «paq», «paq», deydilar.

«Pufak yorilib ketdi», degan so'zlardan keyii bolalar qo'llarini qo'vib yubormasdan doira markazi tomon yurishni taklif qilish mumkin. Ular doira markaziga qarab «sh-sh-sh-sh» deydilar (havo chiqib ketadi). Keyii yana «pufak shishiriladi».

Uyinda dastlab 6-8, keyin 15-16 ta bola ishtirok etadi. So'zlarni shoshilmasdan aniq aytish, bolalarni tarbiyachi bilan so'zlarni takrorlashga jalb qilish lozim.



**Harakatli o‘yunlar kartotekasini
to‘liq holida olish uchun murojaat qiling:**

Narxi: 10 ming so’m

Biz bilan bog‘lanish:



Telegram kanalimiz:

Kanal [@maktabgacha_TT](https://t.me/maktabgacha_TT) yoki



Admin → [@hujjat1bot](https://t.me/hujjat1bot)

Admin
↓

Shokirjon 91-397-77-37



To‘lov uchun: UZCARD *880*8600 0609 4180 8876*summa#

HUMO *880*9860 0803 8650 5368*summa#

DIQQAT!!!

Sizga buni omonat qilib beramiz.

Faqat o‘zingiz uchun

elektronikasidan foydalaning.

Kanal va gruppalarga

tarqatmang.